



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### “HOJIAKBAR SHAYXOV ASARLARIDA KELAJAK TASVIRI VA INSON MAS’ULIYATI”

**Nuriddinova Diyora**

*O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Hojiakbar Shayxov asarlarida kelajak tasviri va inson mas’uliyati masalasi tahlil qilinadi. Adibning ilmiy-fantastik ruhdagi hikoya va qissalaridagi kelajak voqealari orqali inson tafakkuri, axloqiy tanlovi hamda jamiyat oldidagi burchi yoritib beriladi. Maqolada yozuvchining badiiy tasvir vositalari, syujet qurilishi va obrazlar tizimi asosida kelajak manzarasining qanday yoritilganligi ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ilmiy fantastika, ekipaj, kosmos, Mutamax, kosmik kema.*

**Abstract:** *This article analyzes the image of the future and the issue of human responsibility in the works of Hojiakbar Shaykhov. Through the events of the future in the stories and tales of the writer in the spirit of science fiction, human thinking, moral choices, and duty to society are illuminated. The article reveals how the writer illuminates the image of the future based on the means of artistic depiction, plot construction, and system of images.*

**Key words:** *Science fiction, crew, space, Mutamax, spaceship.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется образ будущего и вопрос ответственности человека в произведениях Годжиакбара Шайхова. Через события будущего в рассказах и повестях писателя, написанных в духе научной фантастики, освещаются человеческое мышление, моральный выбор и долг перед обществом. В статье раскрывается, как писатель освещает образ будущего, используя средства художественного изображения, построения сюжета и системы образов.*

**Ключевые слова:** *Научная фантастика, экипаж, космос, Мутамакс, космический корабль.*

Fantastika yunoncha “phantastikē” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ma’nosi — xayoliy, tasavvurga asoslangan degan ma’noni anglatadi. Fantastika atamasi XIX asr boshlaridan shakllana boshlagan bo‘lib, XX asrdan janr sifatida to‘liq adabiyotga kirib keldi. Fantastika janri o‘z ichida turlarga bo‘linadi. Biz diqqatimizni qaratishimiz kerak bo‘lgan turi ilmiy fantastika hisoblanadi. Dunyo miqyosida ilmiy fantastika janrining rivojiga katta hissa qo‘shgan yozuvchilardan Jyul Vern, Artur Klark, Robert Xaynlayn, Rey Bredberi Aziyak A’zimovlarni ko‘rsatishimiz mumkin. O‘zbek adabiyotida bu yo‘nalish, bu janrda salmoqli ijod qilgan ijodkor sifatida Hojiakbar Shayxovni misol keltirsak bo‘ladi. Hojiakbar Shayxov — o‘zining betakror g‘oyalari va adabiy uslubi bilan O‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutgan yozuvchidir. U o‘z asarlarida insoniyat kelajagi, texnologiya va jamiyatning



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



rivojlanishiga alohida e'tibor qaratgan. Shayxovning asarlarida kelajak tasviri ko'pincha murakkab masalalar, axloqiy va falsafiy savollar bilan bog'liq bo'lib, insonning mas'uliyati haqida keng mulohazalar olib boradi. Shayxovning asarlarida kelajak tasviri ko'pincha jamiyatning o'zgarishlari, texnologiyaning rivoji va insonning bu o'zgarishlarga qanday moslashishi kabi masalalarga asoslanadi. Uning ko'plab asarlarida texnologiyaning jamiyatga qanday ta'sir qilishi va uning axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini tasvirlanadi. Shayxov kelajakni tasavvur qilarkan, faqat ilmiy va texnologik jihatdan emas, balki **ijtimoiy** va **axloqiy** nuqtai nazardan ham ko'taradi. Yozuvchining "Sirli nur", "Birinci sinov", "Pushtirang falokat", "Olovdan chiqqan odam", "Mutamax", "Iblis bilan muloqot" hikoyalarida kelajak tasviri, inson jasorati koinot bilan bog'liq jarayonlar mohirona ochib berilgan. Ilmiy-fantastik adabiyot ko'pincha kelajak manzaralarini tasvirlash orqali bugungi insoniyat oldida turgan muhim savollarni o'rta tashlaydi. Uning "Birinci sinov" hikoyasida ham uzoq kelajak — 2279-yilda sodir bo'lgan voqealar orqali inson jasorati, mas'uliyati va shaxs sifatida shakllanish jarayoni yoritadi. Asar markazida kosmik kemada tug'ilib, butun bolaligi fazoda o'tgan Shahnoza obrazi turadi. Hikoya an'anaviy ilmiy-fantastik uslubga xos bo'lgan "kelajak allaqachon o'tmishdek hikoya qilinadi" degan g'oya bilan boshlanadi.

Bu uslub voqealarning ishonarliligini kuchaytirib, o'quvchini tasvirlanayotgan olamga tezroq olib kiradi. "Kamalak" kosmik kemasining Qora Kit burjiga yo'l olishi insoniyatning koinotni o'rganish yo'lidagi fidokorona intilishlarini ifodalaydi. Shahnoza oddiy yosh qiz emas, u boshqa bolalardan ajralib turadi. U fazoda tug'ilib, fazoda ulg'ayadi, Yer hayotini esa faqat ota-onasining hikoyalari va kinofilmlar orqali tasavvur qiladi. Muallif bu orqali insonning muhitga moslashuvchanligi va bilim olishga bo'lgan tabiiy ehtiyojini ko'rsatadi. Shahnozaning tez ulg'ayishi — nafaqat biologik, balki ruhiy kamolotning ham ramzidir. Asarda ota va qiz o'rtasidagi suhbatlar muhim g'oyaviy yukni ko'taradi. Ayniqsa, "birinchilar" haqidagi tushuncha alohida ahamiyatga ega. Birinchilar — bu noma'lumlik sari dadil qadam qo'ygan, hayotini xavf ostiga qo'yishga tayyor insonlardir. Ota Shahnozaga insoniyat taraqqiyoti aynan ana shunday ozchilik fidoyilar evaziga amalga oshganini tushuntiradi. Bu fikr hikoyaning asosiy falsafiy qatlamini tashkil etadi.

Shayxovning "Pushtirang falokat" hikoyasida ham ilmiy fantastika yorqin dalillar asosida yortilganini ko'rishimiz mumkin. Asar bosh qahramoni Shuhrat Salimovich haqiqiy fidokor, insoniyat uchun o'z jonini fido qilgan inson sifatida tasvirlanadi. Professor o'zining xotira molekulalarini ya'ni miyasini fanga hadya qilish g'oyasi bilan yashaydi. O'z miyasini hayvonga ko'chirib o'tkazish orqali insoniyatga so'nggi daqiqagacha xizmat qilish istagi borligi tasvirlanadi. Birgina pushtirang dog' insoniyat boshiga olib keladigan xavflari va buning oldini olishdek mashaqqatli ishni bajarish Shuhrat Salimovichning vazifasiga aylanadi. Aynan uning bu harakatlari aqlga sig'mas darajada tasvirlangan bo'lib, yozuvchining bu yo'nalishdagi mahoratini yanada ochib bergan. Abadiy umr ko'rish, boshqa sayyoralarda ham hayot borligi, koinotdagi insondan boshqa tirik jonlarning yashash muhiti bilan bog'liq dolzarb mavzularni o'zida jamlagan "Sirli nur" hikoyasi, chop etilgan kundan



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



boshlab kitobxonlar orasida qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lgan. Yozuvchining boshqa fantastika janrida ijod qiluvchilardan farqi uslubning o‘zgachaligi hamda har bir asar qahramoniga o‘zbekcha ismlar tanlashidir. Aynan mazkur hikoyada ham Davron Sharipov hamda Ulug‘bek obrazlari uchraydi. Ularning “Yulduzkezar” kemasi kosmosdagi inson qadami yetmagan sayyoraga borishi, o‘zga sayyoraliklar hayoti haqida hikoya qilinadi. “Sirli nur” hikoyasi orqali muallif ilmiy taraqqiyot bilan birga ma’naviy taraqqiyot ham zarurligini ta’kidlaydi. Hikoyaning bosh g‘oyasi inson ilmni boshqarishi agar boshqarmasa ilm insonni boshqarishi mumkinligi haqida jarayonlar aks etadi. Sirli sayyoraga borgan o‘zbek kosmonavtlari sayyoradagi ahvol, sayyoradagilar naslining yo‘q bo‘lib ketish arafasida turganligi va shu kabi dolzarb voqealar oqimiga duch kelamiz.

Xulosa qilib aytganda, Hojiakbar Shayxov asarlarida kelajak tasviri shunchaki xayoliy manzara emas, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmunga ega badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi kelajakni tasvirlash orqali bugungi kun muammolariga e’tibor qaratadi, insoniyatni ilm-fan taraqqiyoti oldidagi mas’uliyat haqida ogohlantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” Toshkent-2018
2. Hojiakbar Shayxov “Birinchi sinov” Toshkent-2024
3. Komiljon Hamroyev “Hikoya kompozitsiyasi” Toshkent-2022

